

O'zbekiston Ar-Riyodda o'tkazilgan xalqaro gumanitar forumda reabilitatsiya va reintegratsiya borasidagi muvaffaqiyatli tajribasini namoyish etdi



Joriy yilning 24-25 fevral kunlari Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripov rahbarligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Ar-Riyodda o'tkazilgan 4-Xalqaro gumanitar forumda ishtirok etdi.

Qirol Salmon nomidagi Gumanitar yordam markazi (KSrelief) hamda BMT tomonidan tashkil etilgan ushbu forumda xalqaro tashkilotlar vakillari, ekspertlar va davlat arboblari gumanitar diplomatiya sohasidagi global muammolarni muhokama qilish, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insonparvarlik masalalarini hal etishda ko'p tomonlama sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish masalalarini ko'rib chiqish maqsadida bir joyga to'pladi.

Forumning e'tibor markazida BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari orqali favqulodda va uzoq muddatli yordam ko'rsatishni davom ettirish maqsadida jahon hamjamiyatini birlashtirish masalalari bo'ldi. Bu, jumladan, butun dunyo bo'ylab ehtiyojmandlarni oziq-ovqat, uy-joy, tibbiy ashyolar va moddiy-texnik yordam bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Forumning yuqori martabali mehmonlari sifatida Saudiya Arabistoni Qirolligi tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saud, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti bosh direktori Emi Poup, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti Bosh direktori Tedros Gebreyesus, Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi Bosh direktori Pyer Krenbyul, Yevropa Komissiyasining Yevropa fuqarolik himoyasi va gumanitar yordam bo'yicha Bosh direktori Machev Popovski, shuningdek, UNICEF Ijrochi direktori Ketrin Rassel va boshqalar ishtirok etdilar.



"Reabilitatsiya va reintegratsiya: qiyinchiliklarni yengish va imkoniyatlarni izlash" sessiyasida soʻzga chiqqan Eldor Aripov qurolli mojarolar hududlaridan qaytarilgan fuqarolarni ijtimoiy moslashtirish boʻyicha Oʻzbek modelini taqdim etdi.

U terrorizmga qarshi kurash faqat kuch ishlatishni emas, balki radikallasuvning asosiy sabablarini, jumladan, ijtimoiy izolyatsiya, taʼlim olish imkoniyatining yoʻqligi va iqtisodiy beqarorlikni bartaraf etishni ham talab qilishini taʼkidladi.

Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston 2019-yildan boshlab "Mehr" insonparvarlik missiyasini amalga oshirib kelmoqda. Uning doirasida 530 dan ortiq fuqaro, asosan ayollar va bolalar vataniga qaytarildi. Ularning jamiyatga moslashuvi uchun tibbiy, ruhiy va ijtimoiy yordamni oʻz ichiga olgan keng qamrovli reabilitatsiya dasturi ishlab chiqildi.

Tadbir davomida SMTI rahbari ishtirokchilarni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan qaytib kelganlarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta qoʻshish masalalari boʻyicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekspertlar kengashining faoliyati bilan tanishtirdi.



Qayd etilishicha, Kengash BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi homiyligida 2024-yilda oʻz faoliyatini boshlagan. Uning asosiy faoliyat yoʻnalishlari sud-huquq masalalari, psixologik-ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, ekstremistik fikrlarga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyatining ishtirokini taʼminlashni oʻz ichiga oladi.

Erishilgan yutuqlarga qaramay, reabilitatsiya va reintegratsiya sohasidagi ishlar yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Mintaqaviy ekspertlar kengashini reintegratsiya va reabilitatsiya boʻyicha xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish gʻoyasiga qiziqish paydo boʻlgani qayd etildi. Ishtirokchilarning fikricha, bu turli mamlakatlarning reabilitatsiya va reintegratsiya sohasidagi tajribasini birlashtirish, yordam koʻrsatishning global standartlari va uslublarini ishlab chiqish, mojarolar qurbonlarining jismoniy va ruhiy salomatligini tiklash, hamda odamlarni faol hayot va mehnat faoliyatiga qaytarish uchun oʻqitish va qayta tayyorlashga koʻmaklashadi.

Ma'lumot uchun. KSrelief har ikki yilda Saudiya Arabistoni Podshohligida Ar-Riyod Xalqaro gumanitar forumini (RIHF) tashkil etadi. RIHF forumida gumanitar soha yetakchi vakillari, jumladan donorlar, amaliyotchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va boshqa ekspertlar ishtirok etib, gumanitar yordam sohasidagi qonunchilik, axborot texnologiyalari va logistika masalalari bo'yicha muloqotni rivojlantirishga hissa qo'shmoqdalar.

Forum, dolzarb gumanitar muammolarni muhokama qiladi hamda xalqaro gumanitar tamoyillar va standartlarga muvofiq, shuningdek Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish doirasida innovatsion amaliy yechimlarni ishlab chiqadi.